



SUN'IY INTELLEKTNING BADIY TARJIMADA QO'LLANILISHI: A.FAYNBERG SHE'RLARI MISOLIDA LINGVISTIK, SEMANTIK VA POETIK TAHLIL

Aziza Azimjonovna Zoyirova

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Kompyuter lingvistikasi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: p.f.n., prof. Shaxlo Shukurlaevna Yuldasheva

Annotatsiya. Mazkur maqolada Aleksandr Faynberg she'rlari tarjimasi misolida sun'iy intellekt va inson tafakkuri o'rtasidagi badiiy tafovutlar tahlil yoritildi. She'riy tarjima jarayoni nafaqat lug'aviy moslik, balki poetik ruh, emotsional chuqurlik va estetik yaxlitlikni saqlashni ham talab etadi. Sun'iy intellekt vositalari tomonidan amalga oshirilgan tarjimalar inson tarjimalari bilan lingvistik, semantik va poetik mezonlar asosida qiyosiy tahlil qilinib, ularning poetik tuzilishga ta'siri o'rganildi. Tadqiqot davomida sun'iy intellektning badiiy matni tushunish va qayta yaratishdagi cheklovlari, ayniqsa, ramziy obrazlarni ifodalashdagi zaifliklari ochib berildi. Xulosalar shuni ko'rsatadiki, sun'iy tarjima tizimlari she'riy asarlarning ruhiy-intellektual mohiyatini to'liq aks ettira olmaydi, bu esa inson tafakkurining ijodiy yondashuvi va poetik tafakkurning o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, badiiy tarjima, lingvistik tahlil, semantik tahlil, poetik tahlil, Aleksandr Faynberg, she'riy tarjima, metafora, obrazlilik.

Kirish. She'riy tarjima – bu nafaqat adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik va tilshunoslik, balki san'at va falsafa bilan chambarchas bog'liq murakkab ijodiy jarayon bo'lib, u matnning lug'aviy mazmunini yetkazish bilangina cheklanmay, balki uning poetik tuzilishi, emotsional quvvati va estetik mohiyatini ham saqlab qolishni talab qiladi. Zamonaviy raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida sun'iy intellekt vositalari tarjima jarayonida faol qo'llanila boshladi [3,4,5,6]. Biroq bunday tizimlar tomonidan yaratilgan tarjimalarning badiiy sifati, matnning asl ruhiga mosligi va ifoda imkoniyatlari bahslarni kuchaytirmoqda.

Ushbu maqolada Aleksandr Faynberg she'rlari tarjimalari misolida inson tafakkuri va sun'iy intellekt o'rtasidagi farqlar tahlil qilinadi. Xususan, tarjimonlar tomonidan yaratilgan poetik talqinlar bilan sun'iy tarjima tizimlari natijalari lingvistik, semantik va poetik jihatdan qiyoslandi. Sun'iy intellektning badiiy matn bilan ishlashdagi zaifliklari, ayniqsa, obrazlilik, metaforik ifodalar va emotsional ifoda vositalarini yetkazishdagi kamchiliklari ochib berildi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida sun'iy tarjima tizimlarining roli ortib borayotgan bir paytda, badiiy tarjima jarayonida inson omilining muhimligi va ijodiy tafakkurning o'rnini yanada aniq ko'zga tashlanmoqda. Ushbu maqola she'riy tarjimaning murakkab mexanizmlarini



ochib berish bilan birga, inson tafakkuri va sun'iy intellekt imkoniyatlari o'rtasidagi tafovutlarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Metod va usullar. Maqolada Aleksandr Faynberg she'rlari tarjimalarining badiiy, lingvistik va semantik jihatlarini chuqur tahlil etish maqsadida turli tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil yordamida ijodkor tarjimonlarning poetik talqinlari va ilg'or raqamli texnologiyalar orqali yaratilgan tarjimalar o'zaro solishtirildi. Bu yondashuv har ikki tarjima uslubining o'ziga xos jihatlarini aniqlash va ularning badiiy qiymatini baholash imkonini berdi. She'riy matnning tarkibiy tuzilishini tahlil qilish uchun lingvistik tahlil usuli qo'llanildi. Unda grammatik va sintaktik tuzilish, leksik birliklarning qo'llanilishi va tarjimada badiiy ifoda vositalarining o'zgarishi o'rganildi. Semantik tahlil orqali esa matn mazmunining chuqurlashtirilishi, poetik timsollar va ramzlarning tarjima jarayonida qanday o'zgarishlarga uchragani tahlil qilindi. Shuningdek, tarjimaning estetik va emotsional ta'sir kuchini baholash maqsadida poetik tahlil usuli qo'llanib, she'riy ritm, ohang, obrazlilik va stilistik uyg'unlikning saqlanib qolish darajasi o'rganildi. Tadqiqot jarayonida klassik tarjima an'analari va zamonaviy avtomatlashtirilgan tarjima tizimlarining cheklovlari bir-biriga qiyosiy baholanib, ijodiy tafakkur va algoritmik jarayon o'rtasidagi tafovutlar yoritildi. Ushbu yondashuvlar orqali she'riy tarjima jarayonida inson omili bilan sun'iy tizimlar tomonidan yaratilgan matnlar orasidagi farqlar aniq tahlil qilinib, raqamli vositalarning badiiy tarjimada samarali qo'llanilishi imkoniyatlari muhokama qilindi.

Natijalar va muhokama. Aleksandr Faynbergning "Слово" she'ri turli tillarga tarjima qilingan. Tadqiqot davomida shoir tomonidan yaratilgan badiiy matn, tarjimonlar tomonidan erkin poetik talqinda ifodalangan variant, ya'ni R.Rusurmon tarjimasi [2] va sun'iy intellekt algoritmlari orqali amalga oshirilgan tarjimalarni qiyoslab, ularning poetik mohiyati va ifoda quvvatini solishtirdik. Tahlil davomida sun'iy intellekt tizimining badiiy tafakkur jarayonidagi chegaralari, uning poetik obrazlarni yetkazishdagi zaifliklari va lingvistik moslashuvga qanchalik ta'sir ko'rsata olishi aniqlandi.

Asliyat. Aleksandr Faynberg she'ri: "Слово"

Опаздывают поезда.

И самолётов ждать не ново.

*Но вот уж истинно беда,
когда опаздывает слово.*

*Как у погасшего костра,
как у забитых накрест окон*



*о тех, кто ждал его вчера,
оно рыдает одиноко. [1]*

Tarjima matn. Rustam Musurmon: “So‘z”

*Poezd kechikishi oddiy voqea,
Samolyotni kutib ichikadi ko‘z.
Haqiqiy baxtsizlik, katta fojia –
Mabodo kechiksa kutilyotgan so‘z.
So‘ngan gulxan uzra bo‘lgandek pushmon,
Kimsasiz kulbaga boqqandek mahzun
Kechikkan so‘z g‘arib, yig‘laydi yomon,
Uni kecha kutgan odamlar uchun.*

Sun‘iy intellekt asliyatni quyidagicha tarjima qildi: **“So‘z kechikdi”** [7]

Poyezdlar kechikadi, oddiy hol,
Samolyotlarni kutish – odatiy.
A **”** chin fojia shundaki,
Agar so‘z kechiksa, unutiladi.
Xuddi so‘nib qolgan gulxan singari,
Yopiq derazalar ortida mahzun,
Kecha kutganlar yurakni siqadi,
Yolg‘iz so‘z yig‘laydi mung‘ayib tun.

Aslyat va tarjima matnda ayrim misralarning lingvistik, semantik va poetik tahlili quyidagi natijalarni berdi. Birinchi *“Опаздывают поезда”* [1] satrida aslyatda poezdlarning kechikishi oddiy hodisa sifatida berilgan bo‘lsa, shoir tarjimasida bu fikr *“Poezd kechikishi oddiy voqea”* [2] shaklida aks ettirilgan. Sun‘iy intellekt tarjimasida esa *“Poyezdlar kechikadi, oddiy hol”* [7] tarzida ifodalanib, lekin bunda biroz oddiylik kuzatiladi.

Poetik jihatdan she‘r ohangida lirik-falsafiy ruh sezilib turadi. Shoirning tarjimasida bu kayfiyat saqlangan, ammo sun‘iy intellekt tarjimasida ekspressivlik sustlashgan. Lingvistik nuqtayi nazardan Sun‘iy intellekt tarjimasida *“oddiy hol”* birikmasi stilistik jihatdan ko‘proq so‘zma-so‘z tarjimaga yaqinlashib ketgan, shoir tarjimasidagi *“oddiy voqea”* esa tabiiyroq yangraydi. Demak, shoir tarjimasida tilda mavjud poetik moslashuv, ohang va mantiqiy bog‘liqlik kuchli. Sun‘iy tarjimada esa grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lsa ham, lekin poetik uslub yetarli darajada aks etmagan.



“И самолётов ждать не ново” [1] satrida samolyot kutish odatiy hodisa sifatida tasvirlangan. Shoir tarjimasida esa “*Samolyotni kutib ichikadi ko‘z*” [2] deb, obrazli yondashuv qo‘llangan. Sun‘iy intellekt esa “*Samolyotlarni kutish – odatiy*” [7] deb, hissiy ifodani kamaytirgan. Shoir tarjimasidagi “ichikadi ko‘z” ifodasi obrazli va o‘quvchida ma‘lum hissiyot uyg‘otadi. Sun‘iy intellekt esa buni quruq fakt sifatida aks ettirgan. R.Musurmon tarjimasida “ichikadi” so‘zi metaforik ma‘noda ishlatilgan bo‘lsa, sun‘iy tarjimada u bevosita tarjima qilingan va badiiy mazmun susaygan. Demak, shoir tarjimasida poetik ifoda, hissiyot va metaforik tasvir saqlangan. Sun‘iy intellekt esa bu hissiyotni yetkazolmagan.

Xuddi shu holatni “*Но вот уж истинно беда*” [1] satri tarlimasida ham kuzatish mumkin. Tarjimada bu misra “*Haqiqiy baxtsizlik, katta fojia –*” [2] deb tarjima qilingan. Sun‘iy intellekt esa “*Ammo chin fojia shundaki,*” [7] deb tarjima qilgan, lekin bunda ritmik uyg‘unlik buzilgan. R.Musurmon tarjimasida ritmik aniqlik bor. “Baxtsizlik” va “fojia” so‘zlari parallel ishlatilgan. Sun‘iy intellekt esa bu poetik uslubni saqlamagan. Shoir tarjimasida “beda” so‘zi “fojia” deb tarjima qilingan, sun‘iy intellekt esa uni “chin fojia” shaklida berib, sal kuchliroq ohang hosil qilgan. Inson tarjimasida badiiy vositalarga boyroq. Sun‘iy intellektning varianti esa nisbatan oddiy va hissiyotdan yiroq.

To‘rtinchi satr, ya‘ni “*когда опаздывает слово*” [1] R.Musurmon tomonidan “*Mabodo kechiksa kutilyotgan so‘z*” [2] deb tarjima qilingan bo‘lsa, sun‘iy intellekt tomonidan “*Agar so‘z kechiksa, unutiladi*” [7] deb berilib, bu esa original mazmunga mos emas. Inson tarjimasida “kutilyotgan” so‘zi fojiali kayfiyat hosil qiladi. Sun‘iy intellekt tarjimasida esa qo‘shimcha “unutiladi” degan element paydo bo‘lib, originalga mos kelmaydi. Inson tarjimasida fikr aniq ifodalangan, sun‘iy intellekt esa ortiqcha so‘z qo‘shish bilan poetik uyg‘unlikni yo‘qotgan. Shoir tarjimasida hissiy hatdan boy, sun‘iy intellekt esa ma‘noni to‘g‘ri ifodalasa ham, she‘riy tuzilmani buzgan.

5-satrdagi “*Как у погасшего костра*” [1] o‘tib ketgan, o‘chgan umid yoki his-tuyg‘ularni ifodalash uchun ishlatilgan. Shoir o‘z fikrini metafora orqali yetkazgan: gulxan – bu ehtiros, iliqlik yoki umid ramzi, uning so‘nishi esa – sovuq, o‘lik holat. R.Musurmon tarjimasida bu obraz “*So‘ngan gulxan uzra bo‘lgandek pushmon*” [2] tarzida poetik moslashuv bilan berilgan. “Pushmon” so‘zi bevosita izoh talab qilmasa-da, his-tuyg‘ularni chuqur ochib bera oladi. Sun‘iy intellekt esa bu misrani “*Xuddi so‘nib qolgan gulxan singari*” [7] deb tarjima qilgan. Bu tarjima ma‘nosi jihatidan to‘g‘ri bo‘lsa-da, ohang va hissiy ta‘sir jihatidan sustroq. Shoir tarjimasida metafora to‘liq saqlangan va o‘zbek tiliga tabiiy tarzda moslashgan.



Sun'iy intellekt tarjimasida esa misraning sintaktik tuzilishi originalga juda yaqin, ammo badiiy jihatdan hissiyot yetishmaydi. Shoir tarjimasida "pushmon" so'zi qo'llanib, qo'shimcha hissiyot yuklangan bo'lsa, sun'iy intellekt tarjimasida esa faqatgina to'g'ri tarjima amalga oshirilgan, lekin u badiiy ifoda jihatidan zaifroq.

Asliyatdagi "*как у забытых накрест окон*" [1] yopiq derazalar tasviri orqali umidsizlik va yolg'izlik hissi ifodalangan. Yopilgan, xoch shaklida mixlangan derazalar – tashqi olam bilan aloqaning uzilganligini, ruhiy iztirob va yolg'izlikni ifodalaydi. Tarjimada "*Kimsasiz kulbaga boqqandek mahzun*" [2] ifodasi asosiy mazmunni yo'qotmagan holda, o'zbek tilidagi tabiiy ifoda vositalaridan foydalangan. Sun'iy intellekt esa "Yopiq derazalar ortida mahzun" [7] deb tarjima qilgan. Shoir tarjimasida "kimsasiz kulba" obrazli ifoda bo'lib, Sun'iy intellekt esa so'zma-so'z tarjima qilganligi sababli hissiy ta'sir yetarli emas u faqat lug'aviy tarjimani amalga oshirgan.

7-satrdagi "*о тех, кто ждал его вчера*" [1] kechikkan so'zning qadrini anglatuvchi muhim tasvirlardan biri. Shoir o'tmishda kutgan odamlar haqida so'z yuritgan va she'riy satrda ularning intizorligi, umidining puchga chiqqanligi yashiringan. Tarjimon "*Uni kecha kutgan odamlar uchun*" [2] deb tarjima qilib, sintaktik jihatdan aniq, tushunarli va original ma'no saqlangan. Sun'iy intellekt esa "Kecha kutganlar yurakni siqadi" [7] deb tarjima qilgan, bu esa she'rning asl mohiyatidan uzoqlashgan. Shoir tarjimasida "odamlar uchun" iborasi matnni silliq, tabiiyroq qilgan. Sun'iy intellekt esa "yurakni siqadi" degan ifodani kiritgan, bu esa original matnning ma'nosiga mos kelmaydi. Shoir tarjimasi soddalik va poetik ohangni saqlagan, sun'iy intellekt esa noaniq iboralar ishlatib, misraga boshqa ma'no yuklagan.

8-sart, ya'ni "*оно рыдает одиноко*" [1] kechikkan so'zning yolg'iz, ayanchli ahvolda ekanligini ifodalaydi. Shoir bu yerda "so'z"ni jonli obyekt sifatida tasvirlab, unga insonga xos "yig'lash" harakatini nisbat bergan. Bu personifikatsiya san'ati orqali tasvirning kuchaytirilganligi ko'rinadi. Tarjimada "*Kechikkan so'z g'arib, yig'laydi yomon*" [2] shaklida berilgan. Tarjimada "g'arib" va "yig'laydi yomon" iboralari misraning hissiy quvvatini oshirgan. "G'arib" so'zi orqali hissiy jihatdan boy ifoda yaratilgan bo'lsa, Sun'iy intellekt esa "Yolg'iz so'z yig'laydi mung'ayib tun" [7] deb tarjima qilib, "mung'ayib tun" qo'shimcha ma'no yuklagan, biroq u asl matn mazmunidan biroz chetlashgan. Tarjimada badiiy ekspressiya va poetik uyg'unlik mavjud, sun'iy intellekt esa sintaktik jihatdan to'g'ri tarjima bersa-da, semantik nuqtayi nazardan to'liq mos kelmagan.



Xulosa. She'riy tarjima faqatgina lug'aviy muvofiqlikni ta'minlash bilan cheklanmay, balki badiiy ruhni, poetik tuzilmani va emotsional mazmuni yetkazishni talab qiladigan murakkab ijodiy jarayondir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tarjimonlik san'ati chuqur poetik idrok va estetik sezgirlikni talab qiladi, holbuki, raqamli tizimlar hali bunday jihatlarni to'laqonli anglash va ifodalash qobiliyatiga ega emas.

Texnologik rivojlanish tarjima jarayoniga muayyan qulayliklar yaratgani bilan, badiiy ifodaning nozik jihatlarni saqlab qolishda, ayniqsa, ramziy obrazlar, poetik ritm va hissiy quvvatni yetkazishda jonli tafakkur ustunlik qilmoqda. Bu esa she'riy tarjimada ijodiy tafakkur va poetik mahoratning o'rni hanuz muhimligicha qolayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Файнберг А. Избранные стихи. –Т.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. – 210 b.
2. Александр Файнберг. <https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/rus-sheriyati/aleksandr-faynberg/>
3. Olimova, Muxlisa V. Sun'iy intellekt yordamida ishlab chiqilgan zamonaviy texnologiyalarning tahlili. *Innovative Development in Educational Activities*, 2023, Jild 2, №15, sah. 113–122. (zenodo.org)
4. Abduganiyeva, Jamilya. Sun'iy intellekt va tarjima. *Tamaddun Nuri Jurnali*, 2024, Jild 6, №57, sah. 132–136. (in-academy.uz)
5. Jumaniyazova, Lobar S. Aleksandr Faynberg she'rlarining lingvistik tahlili. *Research Education*, 2023, Jild 1, №4, sah. 20–23. (researchedu.org)
6. Knyazev, A. Poeticheskiy perevod v epokhu tsifrovoykh tekhnologiy // *Voprosy teorii perevoda*. – 2021. – №3. – S. 67–81.
7. OpenAI. ChatGPT tarjimalari. URL: <https://openai.com>